
Zulayho Mahkamova Farg'ona shahridagi "Oqila ayollar" harakati a'zolari bilan uchrashdi

Qirguli mavzeidagi bolalar musiqa va san'at maktabining faollar zalida o'tkazilgan uchrashuvda xotin-qizlar faollari, harakat a'zolari ishtirok etishdi. Tadbirda Bosh vazir o'rinbosari Zulayho Mahkamova mamlakatimizda so'nggi yillarda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, ijtimoiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar haqida ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, jamiyat va davlat hayotida ayollar va erkaklarning teng xuquqliligini, shuningdek, xotin-qizlarning qonuniy xuquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'layotganligiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Tadbir davomida Farg'ona shahrida "Oqila ayollar" harakati tomonidan bajarilayotgan ishlar tahlil qilindi. Harakat yetakchisi Shahodatxon Axunovanning istiqboldagi rejalari haqida ham ma'lumotlar berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-04-27 16:19:43